



## ISLOHOTLARDA INSON QADRI TAMOYILINING USTUVORLIGI

Toshpo`latova Mohinur  
Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Yangi Konstitutsiyamizda amalga oshirilishi belgilangan islohotlarning samarali tanlov ekanligiligi, olib borilayotgan ishlar hamda inson sha`ni va qadri hozirgi tezkor dunyoning ustuvor talablaridan ekanligi ko`rsatib o`tilgan.

**Kalit so`zlar:** Inson huquqlari, inson qadri, sha`ni, yosh avlod, jamiyat taraqqiyoti, islohotlar.

Hozirgi kunda mamlakatimiz jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Yangi O`zbekistonda olib borilayotgan keng ko`lamli islohotlatlar ham buning yaqqol misolidir. Xususan, yaqinda referendum orqali jamoatchilik tanloviga ko`ra tasdiqlangan, "Inson qadri uchun" tamoyili ustuvor bo`lgan yangi Konstitutsiyamiz ham buning yorqin namunasi hisoblanadi. Yangi qomusimizning har bir moddasi jamiyatdagi turli qatlamlarning manfaatlarini; o`zbek xalqining, ona diyorimizda istiqomat qiladigan turfa millat vakillarining, umidli yoshlarmizning ham azaliy orzu-istikclarini qamrab olgan.

Bugungi texnikariviji zamonida har bir qarash, har bir yangilik yoki fan-texnika sohasidagi biror ixtiro qisqa vaqt ichida eskirib, tahrirtalab bo`lib qolmoqda. Xalqimizga ma`lumki, avvalgi Konstitutsiyamiz ham o`z davrida fuqarolar uchun ko`plab imkoniyatlar, erkinliklar eshigini ochib bergen. Ammo zamona zayli hamda xalqaro standartlardan kelib chiqib qaralsa, anchayin eskicha qarashlar ustuvor bo`lib borayotganligi kundek ravshan edi. Endilikda, qonunlardagi ziddiyatlar va noaniqliklar fuqarolar foydasiga hal etiladi. Yangi tahrirdagi konstitutsiyada belgilanishicha:

- Insonning huquq va erkinliklarini ta`minlash davlatning oliy maqsadidir;
- O`zbekiston Respublikasida o`lim jazosi taqiqilanadi;
- Hech narsa insonning sha`ni va qadr-qimmatini kamsitish uchun asos bo`lishi mumkin emas;
- Har kim davlat organlarining yoxud ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararning o`rni davlat tomonidan qoplanishi huquqiga ega;
- Hech kimga uning roziligesiz qonunchilikda belgilanmagan majburiyat yuklatilishi mumkin emas kabi ko`plab fuqarolarning huquq va erkinlari haqidagi misollarni keltirish mumkin.



Yangi O`zbekistonning kundan kunga yuksalib borayotganini va unda Uchinchi Renessans jarayonini MDH davlatlari orasida yuksak ishonch bilan eng ko`p investitsiya oqimining aynan yurtimizga kirib kelishi bilan bog`lasak xato bo`lmaydi. Bir qator rivojlangan davlatlar bilan ikki tomon uchun ham foydali bitimlar imzolanmoqda. Bundan tashqari yoshlarga qaratilgan e`tibor hamda buning natijasi o`laroq ko`plab xalqaro olimpiadalarda (shaxmat, futbol, boks, musiqa va san`at sohalarida) qo`lga kiritilayotgan yutuqlar ham talaygina va bu yoshlarga qaratilgan e`tiborning mevasidir.

Ta`lim sohasida amalga oshirilgan islohotlarning ahamiyatlari jihat shundaki, birgina o`qituvchi maqomini belgilovchi qonunda ham tanlagan kasbimizga faxr va g`urur tuyg`ularini uyg`otmoqda. Xotin-qizlarimizga ajratilgan davlat grantlari ko`paytirilgan, oliv ta`limdan keying ta`limda ham ularning ta`lim olishi qo`llab-quvvatlangan. Hozirda yurtimiz bo`ylab men va men kabi tengdoshlarim uchun katta-katta imkoniyatlar yaratilmoqda. Kasbga yo`naltirish doirasida tashkil etilgan turli tadbirlar, dasturlar ko`p. Jumladan, yoshlarni turizm, IT, media, shaxsiy biznes yuritish, moliya, huquq sohalaridagi bilim va ko`nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan “Skill Gamp” ham bunga yaqqol misol bo`la oladi. Bu dasturning yoshlari uchun manfaatli tomonlari anchagina.

Bu yil men ham o`z huquq, burch va vazifalarim belgilab qo`yilgan Konstitutsiyamiz uchun o`tkazilgan referendumda siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchisi sifatida qatnashdim. Yaqinda belgilangan prezidentlik uchun olib boriladigan muddatidan oldingi saylovda ham menga berilgan konstitutsiyaviy huquqimdan foydalaniib munosib nomzodga ovoz beraman. Zero, xalqning ovozi, xalqning tanlovi eng adolatli tanlov hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonunining loyihasi.